



## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I**

**Umumiy o'rta ta'lif maktablarini Fransyaning Hachette Livre Group nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan fransuz tili darslik majmualari bilan ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga muvofiq Fransiya Respublikasi Hachette Livre Group guruhining "Passe-Passe", "Décibel" va "L'atelier" darsliklarini xarid qilish va amaliyotga joriy qilishga doir vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Fransyaning Hachette Livre Group nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan fransuz tili darslik majmualarini qabul qilish va umumiy o'rta ta'lif maktablarini mazkur darsliklar bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi tizimidagi fransuz tili o'qitiladigan maktablarda Fransyaning Hachette Livre Group guruhi tomonidan ishlab chiqilgan Didier FLE o'quv-metodik majmualaridan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilinganligi;

Respublika ta'lif markazida tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan nashriyotning o'quv-metodik majmualari o'rganilganligi;

Hachette Livre Group guruhi tomonidan ishlab chiqilgan "Passe-Passe" darslik majmualari umumiy o'rta ta'lif maktablarining 1-4-sinflari uchun, "Décibel" darslik majmualari 5-9-sinflari uchun hamda "L'atelier" darslik majmualari 10-11-sinflar uchun mosligi belgilanganligi;

Didier FLE nashrlarining xalqaro distribyutori hisoblangan Groupe Hatier International (GHI) bilan vazirlik o'rtasida shartnomaga imzolanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (F.Jamuratova) imzolangan shartnomaga muvofiq to'lovlarini o'rnatilgan tartibda amalga oshirsin.

4. O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Respublika ta'lif markazi (Sh.Sattarov) 10 kun muddatda tajribali mutaxassislarini jalb qilgan holda Hachette Livre Group guruhi tomonidan ishlab chiqilgan "Passe-Passe" (1-4-sinflar), "Décibel" (5-9-sinflar) hamda "L'atelier" (10-

11-sinflar) darslik majmularini milliy qadriyatlarimizga hamda o‘quv rejaga mosligi nuqtai nazaridan ekspertizadan o‘tkazsin va xulosalarni Hachette Livre Group guruhiga taqdim etsin.

5. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova) shartnoma doirasida belgilangan muddatlarda Didier FLE nashrlarining xalqaro distribyutori hisoblangan Groupe Hatier International (GHI) bilan hamkorlikda yangi 1-11-sinf fransuz tili darslik majmularidan foydalanish bo‘yicha masofaviy vebinarlar hamda hududlarda oflays seminarlar tashkil etsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,  
2023-yil 2-iyun,  
146-son